

Faritdinov Jur'at Nurmuxammetovich

Alfraganus University Turizm fakulteti

Umumkasbiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

INTERYERDA RANGLAR UYG'UNLIGINING PSIXOLOGIK VA ESTETIK AHAMIYATI

Annotatsiya: Zamonaviy qurilish arxitektura sohasini interyer dizaynisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero, interyerdagi ranglar uyg'unligi, dizaynning har bir detaligacha berilgan e'tibor bino yoki inshootning ko'rkan va har tomonlama qulay bo'lishi uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada interyer dizaynida ranglar uyg'unligining ahamiyati, ranglarning inson psixologiyasiga ta'siri hamda ularni to'g'ri tanlash prinsiplari yoritilgan. Maqolada ranglar psixologiyasi, ularning xonaga ko'rsatadigan vizual va emotsional ta'siri, shuningdek, ranglarni uyg'unlashtirishda qo'llaniladigan asosiy qoidalar yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: interyer, dizayn, ranglar uyg'unligi, funktsionallik, arxitektura.

Фаритдинов Джурат Нурмухамметович

Факультет туризма Университета Альфраганус

Старший преподаватель кафедры общепрофессиональных дисциплин

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ И ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЦВЕТОВОЙ ГАРМОНИИ В ИНТЕРЬЕРЕ

Аннотация: Область современной строительной архитектуры немыслима без дизайна интерьера. Ведь цветовая гармония в интерьере, внимание, уделяемое каждой детали дизайна, имеют огромное значение для того, чтобы здание или сооружение выглядело презентабельно и во всех отношениях уютно. В данной статье освещается значение цветовой гармонии в дизайне интерьера, влияние цветов на психологию человека, а также принципы их правильного выбора. В статье рассматривается психология цветов, визуальное и эмоциональное воздействие, которое они оказывают на комнату, а также основные правила, применяемые к сочетанию цветов.

Ключевые слова: Интерьер, дизайн, цветовая гармония, функциональность, архитектура.

Faritdinov Jur'at Nurmukhammetovich

Alfraganus University Faculty of Tourism

Senior Lecturer, Department of General Professional Sciences

PSYCHOLOGICAL AND AESTHETIC SIGNIFICANCE OF COLOR HARMONY IN THE INTERIOR

Annotation: The field of modern building architecture is inconceivable without interior design. After all, the color harmony in the interior, the attention paid to every detail of the design, are of great importance for the building or structure to look presentable and cozy in all respects. This article highlights the importance of color harmony in interior design, the influence of colors on human psychology, as well as the principles of their correct choice. The article examines the psychology of colors, the visual and emotional impact they have on a room, as well as the basic rules applied to color combinations.

Keywords: Interior, design, color harmony, functionality, architecture.

Asosiy qism. Bugungi kunda arxitektura va binokorlik sohalari jadal sur'atlarda rivojlanar ekan, ularning tarkibiy qismlari bo'lgan dizayn va interyer yo'nalishlari ham izchil taraqqiy etmoqda. Soha doimiy yangilanib, zamonaviy bilim va uslublar asosida shakllanib bormoqda, bu esa kreativ yondashuvlarning ortishiga zamin yaratmoqda. Ekologik muhitdagi o'zgarishlar va insonlarning qulay yashash sharoitlariga bo'lgan talabining oshib borishi interyer va dizayn sohalarining ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda hamda ushbu yo'nalishlarda ko'plab amaliy ishlar olib borilishini ta'minlaydi. Jumladan bizning yurtimizda ham, interyer dizayni, arxitektura sohalari jadal rivojlanib bormoqda. Sohada yangiliklar, zamon bilan hamnafaslik o'z ifodasini topmoqda. Interyer dizayn sohasi rivoji yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qarorlar va farmonlar bu sohaning rivoji, me'yoriy asoslari hamda

dizaynerlar faoliyatining tartibga solinishida muhim ahamiyatga kasb etib. estetik tamoyillarga asoslangan zamonaviy muhit yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "2022 -2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmonining "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" (V-bo'lim) qismida "75-maqсад: Tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish" kabi maqsadlarda qaror - milliy arxitektura, dizayn va madaniy merosni zamonaviy tendensiyalar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Ayni qaror yuzasidan shu sohada ko'plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan, arxitektura va dizayn sohasida milliylik va zamonaviylik uyg'unligini ta'minlash borasida yangi yondashuvlar joriy etilmoqda. O'zbekistonning tarixiy shaharlari : Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz kabi hududlarda qadimiy me'moriy merosni saqlab qolgan holda, zamonaviy turizm infratuzilmasi va shaharsozlik loyihalari amalga oshirilmoqda. Misol uchun, "Yangi O'zbekiston" bog'i, "Prezident maktablari" me'moriy yechimlari, zamonaviy madaniyat markazlari va kreativ texnoparklar loyihalarida milliy bezak san'ati, naqshlar, rang-baranglik hamda ekologik dizayn elementlari bilan boyitilgan muhit yaratilmoqda. Ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda arxitektura va binolar interyer dizayni ustida ko'plab ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Barcha qurilayotgan va ta'mirlanayotgan zamonaviy ko'rinishdagi bino inshoot (arxitektura namunasining) interyer va dizayni inson uchun maqul kelishida uning ranglari alohida e'tibor talab qiladi. Zamonaviy interyer dizaynida ranglar faqatgina bezak elementi emas ular muhitga ruhiy ta'sir ko'rsatadi, kayfiyatni shakllantiradi va hatto inson salomatligiga ham ta'sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ranglar uyg'unligini to'g'ri tanlash, nafaqat estetik go'zallikni, balki qulay va sokin yashash muhitini yaratishda muhim omil hisoblanadi. Interyerdagi ranglar uyg'unligi bu nafaqat did masalasi,

balki ilmiy asosga ega bo'lgan san'atdir. To'g'ri tanlangan ranglar kombinatsiyasi xonangizni jonlantiradi, unda yashovchilarga qulaylik va iliqlik baxsh etadi. Ranglar bilan bog'liq assotsiatsiyalar turli yoshdagi guruhlar hamda turli milliy madaniyatga mansub insonlarda har xil bo'ladi. Ya'ni, ranglar umumiy reaksiyalar uyg'otish xususiyatiga ega bo'lib, ular insonlarga madaniy va yosh farqiga qaramay, ma'lum bir ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etib o'tganimdek, har bir rang insonda o'ziga xos kayfiyat va hissiyot uyg'otadi. Rang va uning son-sanoqsiz tuslari turli xil emotsiyalarni keltirib chiqarishi mumkin: kayfiyatni ko'tarishi yoki tushkunlik va depressiyani chaqirishi; tinchlantirishi yoki faollashtirishi; iliqlik yoki sovuqlik hissini uyg'otishi mumkin. Rangni qabul qilish bu murakkab jarayon bo'lib, u fizik va psixologik omillar ta'sirida yuzaga keladi.

Interyerda rang tanlashdagi asosiy vazifa bu interyerdagi uyg'unlikka erishishdir. Dizayner tomonidan to'g'ri tanlangan ranglar interyerdagi qulaylik va osoyishta muhitni vasokinlikni ifodalaydi.. Aksincha, noto'g'ri tanlangan ranglar esa noqulaylik, asabiylik, salbiy hissiyotlar, kayfiyatning yomonlashuvi yoki ishonchning pasayishiga olib kelishi mumkin. Interyerda rang tanlashning o'ziga xos qiyinchilik va talablari bor. Masalan: Uchdan ortiq ranglar uyg'unligini bir joyda qo'llamaslik-bu holat ko'zni toliqtirib, qulaylik hissini yo'qotadi. Shu uchdan rangdan asosiysi:

Asosiy rang- interyerdagi eng katta maydonni egallaydi va umumiy uslubning asosiy ohangini belgilaydi. Bu rang xonadagi asosiy muhitni yaratadi.

Yordamchi rang- kichikroq maydonni egallaydi, masalan: parda, mebel qoplamasi va boshqa yirik bo'lmagan elementlarda qo'llaniladi. Bu rang asosiy rang bilan uyg'un bo'lishi kerak.

Aksent (urg'u) rangi-eng kam miqdorda ishlatiladi va asosan dekorativ buyumlar, yoritgichlar, aksessuarlar kabi bezaklarda ko'rinadi. Bu rang interyerni jonlantiradi va e'tibor markazlarini belgilaydi. (1-rasm 1-misol)

Misol 1: Zamonaviy va sokin interyer (Mehmonxona uchun). Asosiy rang (60%) Och kulrang devorlar, pol, yirik mebel (divan). Yordamchi rang (30%) Oq ship, javonlar, gilam, qisman mebel. Aksent rang (10%) Sarg'ish/mustard yostiqchalar, dekorlar, rasm ramkalari, lampa aks ettirilgan bo'lib, interyerdagi jonli nuqtalarga aylanishi bilan birga, umumiy ko'rinishga harakatchanlik va xarakter bag'ishlaydi.

Bunday ranglar muvozanati 60-30-10 qoidasiga asoslangan bo'lib, mehmonxona interyerining zamonaviy, sokin va estetik jihatdan jozibador bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, aksent ranglar yordamida makonda individuallik va uslubiy yaxlitlik hosil qilinadi.



1-rasm. www.fabricsandpapers.com

✚ Bir xil ohangdagi (monoxrom) ranglar katta miqdorda qo'llanmasligi lozim. Bunday ranglar inson psixologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuning uchun ular faqat ayrim detal va elementlarda cheklangan miqdorda ishlatiladi. Monoxrom ranglarni tanlashning ham o'ziga xos qoidalari mavjud (2-rasm).

1. *Qoida 1:* Devorlar va zaminni eng och ranglarda, mebelni esa quyuqroq soyalarida qoldiring. Aksessuarlar uchun esa eng quyuq soyalardan foydalaning.

2. *Qoida-2:* Ranglar balansi: xonadagi ranglarning harorati ham hisobga olinishi kerak. Masalan, ko'k kabi sovuq soyalar xonaga salqinlik beradi, shuning uchun uni iliq rangdagi yorug'lik bilan muvozanatlash mumkin.

3. *Qoida-3:* Yashil, ko'k yoki binafsha kabi ranglardan foydalanish orqali xonaga boylik va chuqurlik qo'shish mumkin.

4. *Qoida-4:* Monoxrom dizaynni yaratishda, turli xil soyalardan foydalanish orqali xonaga chuqurlik va dinamika beriladi. Bu xonani yanada jozibali ko'rinishga keltiradi.



2-rasm. www.pinterest.com

Yaqin qarindosh ranglar (ya'ni, bir xil rang aralashmasi mavjud bo'lgan ohanglar) interyerda eng maqbul va ko'zni toliqtirmaydigan uyg'unlik hosil qiladi. Yaqin qarindosh ranglar (ohangdosh ranglar) interyerda ko'zni charchatmaydigan, tinch va uyg'un muhit yaratadi, chunki ular bir-biriga o'xshash soyalarga ega. Bu ranglar, masalan, ko'k va ko'k-yashil yoki sariq va to'q sariq, bir xil asosiy rangdan olingan, bu esa ularni birgalikda yumshoq va uyg'un ko'rinishga olib keladi. Bunday uyg'unlik tinchlantiruvchi muhit yaratadi va vizual diqqatni tortmaydi.

1-Ohangdosh ranglar: Bir rangdan iborat, biroq turlicha yorug'lik va to'yinganlik darajalari bilan farqlanadigan ranglar guruhidir.

2-Uyg'unlik: Yaqin qarindosh ranglar bir xil rang doirasida joylashgani uchun ular bir-biriga yoqimli ta'sir ko'rsatadi.

3-Vizual osoyishtalik: Bunday ranglar ko'zni charchatmaydi, balki xonada tinchlantiruvchi va osoyishta muhitni yaratadi.

Ko'k va yashil, to'q sariq va qizil kabi ranglar "yaqin qarindosh" hisoblanadi va ular interyerdagi uyushuvchanlikni ta'minlaydi. hu bilan birga, makonda vizual muvozanatni yaratib, ko'zni charchatmaydigan, sokin va uyg'un muhit hosil qiladi. Bu turdagi rang kombinatsiyalari ayniqsa yashash xonalari, bolalar xonalari yoki jamoat makonlari kabi doimiy va uzoq vaqt foydalaniladigan joylarda qulaylik va ruhiy osoyishtalikni ta'minlash uchun muhim hisoblanadi. Dizaynda ranglarning bunday uyg'unligi psixologik jihatdan ijobiy ta'sir ko'rsatib, inson kayfiyatini ko'taradi va makonning funksional ahamiyatini kuchaytiradi. Aynan shu sababli, zamonaviy interyer dizaynida monoxromatik yoki analog rang sxemalaridan foydalanish keng tarqalgan bo'lib, ular fazoda tartib, soddalik va nafislik hissini uyg'otadi (3-rasm).



3-rasm. www.fridlender.ru

Qarama-qarshi (kontrast) ranglar-inson nigohi uchun qulay va yorqin ifoda beradi. Ular makonga jonlilik, dinamika va individual xarakter bag'ishlaydi. Eng muhimi ularni to'g'ri nisbatda va uyg'un(bir birini to'ldira olgan holatda) holda ishlatishdir, aks holda ular interyerni notinch, bezovta qiluvchi,noqulay va vizual jihatdan charchatadigan holga keltirishi mumkin. Masalan, sariq va binafsha, ko'k va to'q sariq, qizil va yashil kabi kontrast ranglar birgalikda ishlatilganda kuchli


vizual ta'sir uyg'otadi, ammo bu ranglar haddan tashqari ko'p yoki noto'g'ri joylashtirilsa, makonda muvozanat buziladi. Shuning uchun kontrast ranglar ko'pincha asosiy dizayn elementlarini ajratib ko'rsatish yoki diqqatni tortuvchi detallarda masalan, mebel, dekor, aksent devorlar qo'llaniladi. Ularni neytral ranglar bilan muvozanatlashtirish esa interyerda uyg'unlikni saqlashga yordam beradi.(4-rasm) Bu usul orqali dizaynerlar makonda vizual ierarxiya hosil qiladi: ya'ni, e'tiborni kerakli nuqtalarga qaratadi, qolgan qismlarni esa fon sifatida sokin va tinch ko'rinishda saqlaydi. Natijada interyer ham estetik, ham funksional jihatdan to'g'ri tashkil etiladi, bu esa foydalanuvchining ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



4-rasm. <https://daryo.uz>

Ko'p rangli (rang-barang) palitralar juda kam hollarda ishlatiladi va odatda maxsus uslubiy yo'nalishlarda qo'llaniladi, masalan pop-art yoki kitsch uslublarida. Bu kabi interyerlar jasur va noodatiy ko'rinishga ega bo'lib, har kim uchun mos bo'lmasligi mumkin.: Ranglarning ko'pligi makonda emotsional portlash, energiya va ekspressiyani aks ettiradi, ammo u noto'g'ri muvofiqlashtirilsa, vizual tartibsizlik, charchoq yoki bezovtalik hissini uyg'otishi mumkin. Shu sababli, bunday palitralar ko'proq ijodkor shaxslar, san'at ixlosmandlari yoki tematik makonlar (masalan, kafe, bolalar xonasi, studiyalar) uchun tavsiya etiladi. Uslubiy uyg'unlikni saqlash va makonni haddan tashqari "yuklab" yubormaslik uchun dizaynerlar ko'p ranglardan foydalanganda ularni

soddalashtirilgan shakllar, minimalistik mebel yoki neytral fon bilan muvozanatlashtirishga intilishadi (5-rasm).



5-rasm. www.helios-deco.com

Xulosa qilib aytganda, yuqorida sanab o'tilgan ranglar uyg'unligi interyerdanafaqat estetik ko'rinishni belgilaydi, aksincha inson psixologiyasiga ham bevositata'sir o'tkazmasdan qolmaydi. Interyerdananglarning noto'g'ri tanlanishi yoki uyg'unlikning buzilishi insondaruhiy bezovtalik, charchoq, tushkunlik, diqqatni jamlay olmaslik kabi salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, interyerdizaynida ranglar uyg'unligini ilmiy asoslangan holda tanlash nafaqat estetik jihatdan muhim, balki inson salomatligi va psixologik barqarorligi uchun ham zarurdir. Shu sababli, interyerdizaynida 60-30-10 qoidasiga asoslangan rang muvozanati, monoxromatik va kontrast ranglar kombinatsiyasi, shuningdek, yaqin ohangdosh ranglar uyg'unligini bilish va ularni to'g'ri qo'llash dizayner uchun zarur ko'nikma hisoblanadi.

Bundan tashqari, interyerdizayni sohasining rivojlanishi, uning arxitektura bilan uzviy bog'liqligi, milliy bezaklar, ekologik yondashuvlar bilan uyg'unlashuvi zamonaviy davr talablariga javob beruvchi fazoviy muhitni yaratishga xizmat qilmoqda. Xususan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va davlat dasturlarida dizayn va interyerga alohida e'tibor berilayotgani ushbu yo'nalishning strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Shu boisdan, ranglar uyg'unligini nafaqat did masalasi, balki ilmiy asosga ega bo'lgan san'at sifatida o'rganish va qo'llash zamonaviy, funktsional hamda insonparvar interyerlarni yaratishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.С. Уралов, Л.А. Адилова. Ландшафт Архитектураси 2014.
2. А.Э. Жанизаков. Шаҳарсозликда экологиянинг долзарб муаммолари
Scientific Journal of Research and Development ISSN 2181-4589, Volume 4, Issue 4, 2023.
3. Аҳмедов М.Қ., Назарова Д.А., Хасанов А.О. Ўзбекистон архитектураси ва шаҳарсозлигининг тараққиёт йўллари. Монография. Тошкент 2016.
4. Д.Д Дилшодов, С.Х Орифжон кизи. Замонавий архитектура: Шаҳарсозлик ва барқарор тараққиётидаги ўрни. Inlibrary 2023.
5. М.С. Дмитриевич, С.П Павлович, Г.З. Анатольевна. Градостроительные средства устойчивого развития; Academia. Архитектура и строительство -2024.